

ESKROU HISOBVARAG‘INI OCHISH VA YURITISH OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank), bir tarafdin, va O‘zbekiston Respublikasi rezidenti/norezidenti bo‘lgan yuridik shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Mijoz), ikkinchi tarafdin, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-377-moddalariga muvofiq eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasining (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) quyida taklif qilinayotgan shartlarini to‘laligicha va so‘zsiz qabul qilishini “Eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasiga qo‘shilish to‘g‘risida ariza” (keyingi o‘rinlarda – Ariza)ni imzolab (akseptlab) taqdim etish orqali bildirib, quyidagi Shartnomani tuzdik.

ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

Ushbu Shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Bosh bank – Bank boshqaruvi apparati;

bank xizmatlari ofisi – Bankning Amaliyot boshqarmasi va bank xizmatlari ofislari;

vakolatli bank xizmatlari markazi – eskrou hisobvarag‘i ochish va yuritishga ruxsat berilgan bank xizmatlari markazi;

eskrou hisobvarag‘i — Bank (eskrou-agent) tomonidan ochiladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, u mijoz (xaridor) tomonidan kiritilgan pul mablag‘larini qabul qilish va saqlash hamda mazkur Shartnomada belgilangan shartlar bajarilgandan so‘ng ushbu mablag‘larni sotuvchiga o‘tkazish majburiyatini nazarda tutadi. Ushbu hisobvarag‘ ko‘chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga o‘n yildan oshmagan M, N, O va G toifadagi transport vositalari hamda maxsus avtotransport vositalari bo‘yicha oldi-sotdi hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun qo‘llaniladi;

Shartnoma – quyidagi hujjatlar: eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasi, Shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida ariza (Shartnomaning 1-ilovasi), Bank xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha tarif rejasi (Shartnomaning 2-ilovasi) jamlanmasi bo‘lib, ilovalar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi;

Shartnomaga qo‘shilish to‘g‘risida ariza (keyingi o‘rinlarda – Ariza) – Bank tomonidan belgilangan shakldagi, Mijoz tomonidan to‘ldiriladigan va imzolanadigan (akseptlanadigan), eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasi shartlariga qo‘shilish haqidagi Mijozning xohish-irodasini o‘zida aks ettirgan hujjat. Mijoz va Bank o‘rtasida nizo yuzaga kelganda ushbu Ariza sudga eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi dalil sifatida taqdim qilinadi;

Bank tariflari – Mijozning eskrou hisobvarag‘iga ko‘rsatilgan xizmatlar va amalga oshirilgan bank operatsiyalari uchun Bank foydasiga to‘lanadigan vositachilik haqlari miqdori va shartlari qayd etilgan holda rasmiylashtirilgan hujjat.

masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimlari yoki interaktiv xizmatlar (keyingi o‘rinlarda – Onlayn tizim) – Mijozga uning Bank bilan o‘zaro bog‘lanishini eskrou hisobvarag‘iga masofadan turib xizmat ko‘rsatish rejimida Internet tarmog‘idan yoki Internet tarmog‘iga ulangan

mobil telefondan (smartfondan) foydalangan holda amalga oshirish imkonini beruvchi Bankning avtomatlashtirilgan elektron tizimi;

elektron raqamli imzo – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

elektron hujjat – elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda hujjatni identifikatsiya qilish imkonini beradigan rekvizitlarga ega bo‘lgan axborot;

mijozning ishonchli elektron raqamli imzosi – elektron hujjatni Mijozning elektron raqamli imzo kaliti orqali tekshirilganda ijobiy natija bergan elektron raqamli imzo;

xaridor — Bank mijoz bo‘lgan, mol-mulkni sotib oluvchi va pul mablag‘larini eskrou hisobvarag‘iga joylashtiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

sotuvchi — mol-mulkni boshqa shaxs egaligiga o‘tkazuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

mol-mulk — oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk yoki ishlab chiqarilganiga o‘n yildan oshmagan M, N, O va G toifadagi transport vositalari hamda maxsus avtotransport vositalari.

tizim — “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Mijozni ushbu Shartnoma matni bilan tanishtirish maqsadida bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) binosidagi axborot va e‘lonlar stendiga va Bankning korporativ veb-saytiga (www.trustbank.uz) Shartnoma va Bank tariflari (amaldagi tahrirda) joylashtiriladi, shuningdek ular Bank mas‘ul xodimining ish stolida ham bo‘ladi.

Tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishdan avval Mijozga Shartnoma matni va Bank tariflari bilan tanishib chiqish huquqi beriladi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma Bank tomonidan mijozga eskrou hisobvarag‘ini ochish va unga xizmat ko‘rsatish tartibini belgilaydi. Ushbu hisobvara q mijozning arizasiga asosan quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ochiladi:

1.2. Bank mijoz (xaridor) tomonidan kiritiladigan pul mablag‘larini eskrou hisobvarag‘iga qabul qilish, ushbu mablag‘larni saqlash, mazkur shartnomada nazarda tutilgan shartlar bajarilganda pul mablag‘larini sotuvchiga o‘tkazish majburiyatini oladi.

1.3. Mijoz (xaridor) belgilangan miqdorda pul mablag‘larini eskrou hisobvarag‘iga kiritish majburiyatini oladi.

1.4. Xaridorlar yoki ularning vakillari sonidan qat‘iy nazar, bitta shartnoma uchun faqat bitta eskrou hisobvarag‘i ochiladi.

1.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan bank operatsiyalari eskrou hisobvarag‘ining xususiyatlari va maqsadlarini inobatga olgan holda, bank xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha alohida shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2. HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

2.1. Eskrou hisobvarag‘i shartnomasi tuzilgandan so‘ng, mijoz/xaridor yoki uning vakili tomonidan taraflar o‘rtasida oldi-sotdi shartnoma obyekt bo‘yicha kelishilgan pul mablag‘lari naqd yoki naqdsiz shaklda eskrou hisobvarag‘iga quyidagi usullar orqali kirim qilinadi:

- Bank kassalari orqali naqd pul mablag‘larini kiritish yo‘li bilan;

- Mijozning Bankda yoki boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlaridan milliy valyutada pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan;
- Qonunchilikda ta‘qiqlanmagan boshqa usullar bilan.

Eskrou hisobvarag‘iga pul mablag‘larini kiritish uchun komissiya undirilmaydi.

2.2. Bank tomonidan pul mablag‘lari eskrou hisobvarag‘iga kirim qilingandan so‘ng bu haqida ushbu bankning avtomatlashtirilgan bank tizimida elektron ma‘lumotlar shakllantiriladi.

2.3. Agar oldi-sotdi shartnoma to‘lov majburiyatlarini kechiktirish sharti bilan amalga oshirilsa yoki to‘liq/qisman kredit mablag‘lari asosida moliyalashtirilganda mijoz/xaridor yoki uning vakili tomonidan tegishli eskrou hisobvarag‘iga taraflar o‘rtasida kelishilgan (boshlang‘ich) pul mablag‘lari kirim qilinadi.

2.4. Oldi-sotdi shartnoma to‘liq yoki qisman kredit mablag‘lari asosida moliyalashtirilganda, bu haqida kredit ajratayotgan bank tomonidan notariusga elektron ma‘lumot taqdim etiladi va kredit mablag‘lari oldi-sotdi shartnoma tasdiqlanganligi bo‘yicha ma‘lumot olingandan so‘ng, dasturiy ravishda shu bank ish kunida (agar ma‘lumot ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) o‘tkaziladi.

2.5. Bank pul mablag‘larini Sotuvchiga quyidagi tartibda o‘tkazadi:

a) Tizimdan oldi-sotdi shartnoma tasdiqlanganligi bo‘yicha ma‘lumotni olgandan so‘ng, dasturiy ravishda memorial order bilan xaridorning yoki uning vakilining eskrou hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini shu bank ish kunida (agar ma‘lumot ish kuni tugagandan keyin kelib tushsa, keyingi ish kunida) sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) o‘tkazadi.

Bunda sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) kirim qilingan pul mablag‘lari uning so‘roviga ko‘ra bank tomonidan naqd shaklda taqdim etilishi mumkin.

b) notarius tomonidan bankka oldi-sotdi shartnoma tasdiqlanganligi bo‘yicha “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi (bundan buyon matnda Tizim deb yuritiladi) orqali ma‘lumot taqdim etilganda, bank tomonidan eskrou hisobvarag‘iga qo‘yilgan pul mablag‘lari sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag‘iga (hisobvaraqlariga) avtomatik o‘tkazilishi mumkin.

Bunda sotuvchilar yoki ularning vakillari ikki yoki undan ko‘p bo‘lganda ularning har biri uchun pul mablag‘larining tegishli miqdori aniq ko‘rsatilishi lozim.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 780-moddasiga muvofiq Mijoz Bank tomonidan ko‘rsatgan xizmatlar uchun ushbu Bank tariflari asosida haq to‘laydi.

2.7. Bank tomonidan ko‘rsatgan xizmat uchun Mijozdan olinadigan haq ko‘rsatgan vaqtning o‘zida hisoblanadi va undiriladi.

2.8. Mijoz tomonidan Bank tomonidan ko‘rsatgan xizmatlar uchun belgilangan miqdordagi mablag‘ to‘lanmasa, Bank mazkur xizmatni amalga oshirmaydi.

2.9. Bank tariflariga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar ushbu Shartnomaning 3.4-bandi oltinchi qismida belgilangan tartibda kuchga kiradi.

2.10. Agar sotuvchiga tegishli summa o‘tkazilgandan so‘ng eskrou hisobvarag‘ida ortiqcha pul mablag‘lari qolsa, Bank mijozning topshirig‘iga asosan ushbu qoldiq mablag‘larni mijozning boshqa hisobvaraqlariga o‘tkazadi.

2.11. Agar oldi-sotdi shartnomasi notarial tasdiqlanmasa va/yoki notariusdan tegishli ma‘lumotlar kelib tushmasa, pul mablag‘lari mijoz (xaridor)ning talabiga binoan unga qaytariladi. Pul mablag‘larini qaytarish mijozning arizasiga asosan eskrou hisobvarag‘idan arizada ko‘rsatilgan boshqa bank hisobvaraqlariga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- Bankdan mazkur shartnoma shartlariga muvofiq pul mablag'larini saqlash va o'tkazish bo'yicha majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini talab qilish;
- eskrou hisobvarag'ining holati va shartnomaning amalga oshirilish jarayoni to'g'risida axborot olish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollarda pul mablag'larini qaytarishni talab qilish.

3.2. Mijoz quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- tegishli pul mablag'larini eskrou hisobvarag'iga o'z vaqtida kiritish;
- eskrou hisobvarag'ini ochish hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishonchli hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish;
- bank xizmatlari uchun komissiyalarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lash.

3.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- shartnomani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish;
- firibgarlik alomatlari yoki qonunchilik buzilishi aniqlangan taqdirda pul o'tkazish bilan bog'liq operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turish;
- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda operatsiyani amalga oshirishni rad etish;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib, mijozga bank hisobvarag'ini (eskrou) ochishni rad etish.

3.4. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- eskrou hisobvarag'idagi pul mablag'larining xavfsiz saqlanishini ta'minlash;
- Tizimdan oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlanganligi to'g'risida ma'lumotni olgandan so'ng pul mablag'larini arizada ko'rsatilgan sotuvchining yoki uning vakilining hisobvarag'iga (hisobvaraqlariga) o'tkazish;
- notariusning elektron so'roviga asosan eskrou hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjudligini dastlabki tarzda tekshirish uchun zarur ma'lumotlarni Tizim orqali real vaqt rejimida taqdim etish;
- agar notarius tomonidan elektron so'rov yuborilgunga qadar tegishli eskrou hisobvarag'i yopilgan bo'lsa, bank tomonidan tegishli eskrou hisobvarag'i yopilganligi haqida Tizimga elektron ma'lumot yuborish;
- ushbu Shartnoma va Bank tariflariga kiritilgan qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlarni, ular kuchga kiritilishidan kamida o'n kun oldin bu haqda tegishli axborotni Mijozga www.trustbank.uz veb-sayti va bank xizmatlari ofisi (vakolatli bank xizmatlari markazi) binosidagi axborot va e'lonlar stendiga joylashtirish, shaxsan topshirish, pochtdan jo'natish, elektron pochtdan jo'natish, mobil telefoniga Telegram kanalidan yuborish kabi usullarning biri vositasida yetkazish orqali e'lon qilish.

4. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH TARTIBI

4.1. Bank mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayta ishlaydi.

4.2. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish deganda ularni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q

qilish bo'yicha bir harakatni yoki harakatlar majmuini amalga oshirish, hamda mazkur shartnomani lozim darajada bajarish maqsadida bajariladigan boshqa harakatlar tushuniladi.

4.3. Shaxsga doir ma'lumotlarga quyidagi maqsadlarda ishlov beriladi:

- mijozlarni identifikatsiya qilish;
- mazkur shartnoma shartlarini bajarish;
- qonunchilik talablarini bajarish;
- firibgarlikning oldini olish va h.

4.4. Bank shaxsga doir ma'lumotlarni "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda uchinchi shaxslarga uzatishga haqli.

Bank tomonidan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:

1. Taraflarning familiyasi, ismi va otasining ismi.
2. Taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami va seriyasi.
3. Taraflarning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR), agar taraflar yoki ulardan biri yuridik shaxs bo'lsa, uning nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR).
4. Shartnoma obyektining ma'lumotlari.
5. Shartnoma summasi.
6. Eskrou hisobvarag'i ochilgan bank kodi.
7. Eskrou hisobvarag'i raqami.
8. Eskrou hisobvarag'iga kirim qilingan pul mablag'lari miqdori.
9. O'tkazib beriladigan kredit mablag'lari miqdori (oldi-sotdi shartnomasi kredit mablag'lari asosida moliyalashtirilganda).
10. Sotuvchiga yoki uning vakiliga o'tkaziladigan pul mablag'lari miqdori.
11. Sotuvchi yoki uning vakilining bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank kodi.
12. Sotuvchi yoki uning vakilining bank hisobvarag'i (hisobvaraqlari).
13. Sotuvchi yoki uning vakilining tranzit hisobvarag'i (hisobvaraqlari) (bank kartasiga o'tkazilganda).
14. Sotuvchi yoki uning vakilining bank kartasi raqami (bank kartasiga o'tkazilganda).

Agar pul mablag'lari bir nechta Sotuvchilarga yoki ularning vakillariga o'tkazilsa, ma'lumotlar ularning har biri bo'yicha alohida taqdim etiladi.

4.5. Mijoz mazkur Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani imzolash orqali shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berilishiga rozilik bildiradi.

4.6. Bank shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Mijoz (xaridor) o'zi taqdim etgan ma'lumotlar (shu jumladan, arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar), hujjatlarning to'g'riligi, ishonchliligi hamda oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha amalga oshirilayotgan bitimning qonuniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

5.3. Bank faqat eskrou hisobvarag'ida saqlanayotgan pul mablag'larining xavfsiz saqlanishi va ularni mazkur shartnoma shartlariga muvofiq o'tkazish uchun javobgar hisoblanadi.

6.4. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- mol-mulkning huquqiy jihatdan ishonchliligi uchun;
- davlat organlarining harakat yoki harakatsizligi uchun;
- mijoz va sotuvchi hamda/yoki notarius o'rtasidagi nizolar uchun;
- Tizimga real vaqt rejimida taqdim etilgan ma'lumotlar natijasida kelib chiqadigan oqibatlar uchun (shu jumladan, eskrou hisobvrag'i mavjud emasligi/yopilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, hisobvarag'dagi amaldagi mablag'lar miqdori va boshqalar).

6.5. Bank quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod etiladi:

- a) bankning elektron to'lov tizimlarida yuzaga kelgan nosozliklar sababli;
- b) mijoz tomonidan taqdim etilgan to'lov hujjatlarini rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan xatolar natijasida to'lovlarning kechikishi sababli;
- c) qonunchilikka muvofiq mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgan taqdirda;
- d) pul mablag'larini olish uchun zarur bo'lgan to'lov hujjatlari o'z vaqtida taqdim etilmaganligi yoki ularda xatoliklar mavjud bo'lganligi sababli;
- e) elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar, shuningdek fors-major holatlar yuzaga kelganda;
- f) xalqaro to'lov-moliya telekommunikatsiya tizimlarida yuzaga kelgan uzilishlar;
- g) protsessing markazi dasturiy ta'minotida yuzaga kelgan nosozliklar;
- h) uchinchi shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi natijasida mijoz pul mablag'larining yo'qotilishi yoki kechikishi yuzaga kelganda.

Shuningdek, Bank har qanday davlat yurisdiksiyasi yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan joriy etilgan sanksiyalar talablariga yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda mijozning operatsiyasini amalga oshirishni rad etganligi natijasida yuzaga kelgan zararlar va/yoki boy berilgan foyda uchun javobgar bo'lmaydi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrda Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

7.2. Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (iqtisodiy sanksiyalar, harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar Shartnomani bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

7.3. Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to'xtaganda taraflar bir-birini darhol xabardor qiladilar. Xabarnoma taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuboriladi.

7.4. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma tuzish, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldi.

8.2. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

8.3. Bir tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf Shartnomani bir tomonlama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

9. SANKSIYALAR RO'YXATIGA OID QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1. Mijoz eskrou hisobvarag'i bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Shartnomaga qo'shilish to'g'risida ariza imzolanishi bilan Mijoz tomonidan Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

9.2. Mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

9.3. Mijozning Bankka taqdim etgan hujjat va ma'lumotlari yolg'on, ishonchsiz va/yoki noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu shartnomada qayd etilgan shartlar Mijoz tomonidan bajarilmasa, Bank Mijozning topshirig'i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag'ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

10.1. Shartnoma Mijozning Shartnomaga qo'shilish to'g'risida arizasi imzolangan (akseptlangan) kundan boshlab kuchga kiradi va boshqa shartnoma tuzilishi sababli ushbu Shartnoma o'z kuchini yo'qotgunga qadar yoki ushbu Shartnoma shartlari to'liq bajarilgunga qadar nomuayyan muddat davomida amal qiladi.

10.2. Mazkur Shartnoma Mijozning arizasiga ko'ra istalgan paytda (oldi-sotdi shartnomasi tasdiqlanmasdan oldin), ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar Mijoz tomonidan to'liq amalga oshirilgandan so'ng, o'rnatilgan tartibda, bekor qilinishi mumkin.

10.3. Ushbu Shartnoma quyidagi holatlarda Bank tashabbusiga ko'ra bir tomonlama bekor qilinadi:

- a) Mijoz "Xalqaro moliyaviy sanksiyalar ro'yxati"ga tushgan bo'lsa;
- b) Mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlanganda;
- c) Mijoz tegishli pul mablag'larini eskrou hisobvarag'iga kiritmaganda hamda pullik bo'lgan bank xizmatlari uchun komissiyalarni to'lamaganda.

10.4. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi eskrou hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

11. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

11.1. Mazkur Shartnomaning qoidalari, shuningdek ulardan kelib chiqadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

11.2. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha nizolar yuzaga kelsa, tomonlar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha harakatlarini amalga oshiradilar. Agar nizoni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa, Bank (bank xizmatlari ofisi, bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.



“Eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish
ommaviy oferta shartnomasi”ga
1-ILOVA

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
“_____” bank xizmatlari ofisi boshqaruvchisi
(bank xizmatlari markazi boshlig‘i)
_____ga
_____dan
(xaridor (xaridorning ishonchli vakili)
famiyasi, ismi va otasining ismi))

**Eskrou hisobvarag‘ini ochish va “Eskrou hisobvarag‘ini ochish va yuritish
ommaviy oferta shartnomasi”ga qo‘shilish to‘g‘risida
A R I Z A**

Menga _____
(sotuvchi/ sotuvchining ishonchli vakili famiylasi, ismi va otasining ismi)

bilan oldi-sotdi bitimi bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun eskrou hisobvara q ochib berishingizni so‘rayman.

- Ko‘chmas mulk oldi-sotdi bitimi
 Transport vositasi oldi-sotdi bitimi
 Maxsus avtotransport vositasi oldi-sotdi bitimi

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2026-yil 13-martdagi 1-son, Markaziy bank boshqaruvining 2026-yil 12-martdagi 7/1-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk va transport vositalarining oldi-sotdi shartnomalari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun notariuslar va banklar o‘rtasida elektron ma’lumotlar almashish tartibi to‘g‘risida”gi nizom (16.03.2026-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3790) talablariga muvofiq, men sotuvchi bilan o‘zaro kelishuv asosida tuziladigan oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha hisob-kitoblarni Bank orqali amalga oshirish uchun quyidagilarni ma’lum qilaman:

Mezon	Xaridor	Sotuvchi
JShShIR/STIR		
Telefon raqami		

Sotib olinayotgan mulkning tavsifi: (avtomobil markasi, ko‘chmas mulk sotib olinayotgan bo‘lsa, kadastr raqami va boshqa ma’lumotlar) _____

Shartnoma summasi: _____

(Son va so‘z bilan)

Sotuvchining bank rekvizitlari: _____

Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilaman:

1. Tomonlarning pasport / ID-karta nusxasi
2. Mulk obyektiga oid hujjatlar (mulk huquqini tasdiqlovchi)
3. Vakil ishtirok etsa, ishonchnoma
4. Kreditli bitim bo'lsa, kredit hujjatlari
5. Boshqa: _____

Mazkur Arizani imzolashdan oldin Eskrou hisobvarag'ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasi matni, Bank tariflari, ushbu Shartnomasi shartlariga muvofiq eskrou hisobvarag'i ochishga va unga xizmat ko'rsatilishiga rozilik beraman hamda ushbu ariza bilan Eskrou hisobvarag'ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasiga qo'shilganligimni (akseptlaganimni) tasdiqlayman.

Mazkur hisobvarag'ga kiritilgan pul mablag'lari notarius tomonidan shartnoma tasdiqlanganligi haqida ma'lumot taqdim etilgandan so'ng sotuvchining hisobvarag'iga o'tkazilishiga roziligimni bildiraman.

Ariza ikki nusxada taqdim qilindi: birinchi nusxasi Mijozda, ikkinchi nusxasi esa Bankda saqlanadi. Mijoz va Bank o'rtasida nizo yuzaga kelganda ushbu Ariza sudga Eskrou hisobvarag'ini ochish va yuritish ommaviy oferta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi dalil sifatida taqdim qilinadi.

Xaridor _____

(imzo)

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

sana: 20__ yil “__” _____

Bank xizmatlari ofisining (markazining) qaydlari:

Xaridorga ochilgan eskrou hisobvarag'i: **22650000**_____

Bank dasturida qayd etilgan eskrou ID raqami va sanasi: № ESC-_____

sana: 20__ yil “__” _____

Mas'ul xodimning ismi, familiyasi va imzosi: _____

Bank xizmatlari ofisi (markazi) rahbarining imzosi va muhr o'rni: _____

**Mijozning eskrou hisobvarag‘iga ko‘rsatilgan xizmatlar va amalga oshirilgan
bank operatsiyalari uchun Bank foydasiga to‘lanadigan vositachilik haqi
TARIFLARI**

№	Bank xizmatlari nomi	O‘lchov birligi	Tarif qiymati	Izoh
Ko‘chmas mulk oldi-sotdi bitimi (amaliyoti) bo‘yicha:				
1				
2				
Avtotransport vositasi oldi-sotdi bitimi (amaliyoti) bo‘yicha:				
3				
4				
5				